

**PANTOMOMA MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTI SIFATIDA  
ПАНТОМИМА КАК ОБЪЕКТ АВТОРСКОГО ПРАВА  
PANTOMIME AS AN OBJECT OF COPYRIGHT**

**Ergasheva Malika Rasulovna**

*Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi*

[malikaergasheva0914@gmail.com](mailto:malikaergasheva0914@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisdagi pantomimaning mualliflik huquqi obyekt sifatidagi maqomi tahlil qilinadi. Muallifning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari yoritiladi. Pantomimaning boshqa mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan o'xshash va farqli jihatlari qiyoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *muallif, pantomima, ijro, asardan foydalanish, muhofaza, shaxsiy nomulkiy huquqlar, mulkiy huquqlar, huquqlarni himoya qilish.*

**Аннотация:** *В данной работе анализируется статус пантомимы как объекта авторского права. Выделяются личные неимущественные и имущественные права автора. Сравниваются сходства и различия между пантомимой и другими объектами авторского права.*

**Ключевые слова:** *автор, пантомима, исполнение, использование произведения, защита, личные неимущественные права, имущественные права, защита прав.*

**Abstract:** *This thesis analyzes the status of pantomime as an object of copyright. The author's personal non-property and property rights are highlighted. Similarities and differences between pantomime and other objects of copyright are compared.*

**Keywords:** *author, pantomime, performance, use of the work, protection, personal non-property rights, property rights, protection of rights.*

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida ilm-fan sohasidagi yutuqlarning ahamiyati tobora ortib, ham sifat, ham miqdor jihatdan yuksalib borayotganligi ayni haqiqat. Bu o'rinda intellektual mulk sohasidagi yangiliklar alohida e'tirofga loyiq. Insonning aql va qalb bilan yangi va yaxshi mahsulot yaratishi o'ziga xos muvaffaqiyat bo'lishi bilan bir qatorda huquqiy muhofaza va himoya qilinishi bilan ham ahamiyatlidir.

**O'zbekiston Respublikasi Bosh Qomusi 53-moddasida** [1] intellektual mulk muhofazasining dastlabki asosi belgilab berilgan. Unga muvofiq har bir inson ilmiy, texnikaviy ijod erkinligiga ega. Shuningdek, davlat intellektual mulkni muhofaza qiladi. Mualliflik huquqi intellektual mulkning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, kundalik hayotda bunday obyektlarga doimo duch kelamiz. Pantomima ana shu mualliflik huquqi obyektlari sirasiga kiruvchi san'at turi hisoblanadi. Quyida pantomimaning tarixi bilan

qisqacha tanishib, mualliflik huquqi obyektini sifatidagi maqomini qonunchilikka asosan ko'rib chiqamiz:

Pantomima deganda, hech shubhasiz ko'z oldimizga **Charli Chaplin ( inglizcha: Charlie Chaplin)[2]** siymosi keladi. Uning so'zsiz, ammo yuz ifodasi va tana harakatlari bilan tomoshabinni ekran qarshisiga mixlab qo'ygan obrazi asrlar oshsa ham o'z mavqeyini yo'qotmagan. Aksincha muxlislar hamon aktyorning mahorati qarshisida lol.

**Internet ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, pantomima-sahna[3]** san'ati turi. Unda badiiy obraz so'zsiz, mimika, imo-ishora, g'ayrat har maqomga solish orqali yaratiladi. Pantomima Yevropada, Yunoniston va Rimda, Osiyoda Xitoy, Hindiston, Xorazm, Baqtriyada miloddan avvalgi V—IV asrlarda yuzaga kela boshlagan.

Taqlid deb atalgan o'zbek pantomimasi, xususan, Amir Temur va Temuriylar saltanatida yaxshi taraqqiy etgan. Rejissyor va dramaturg L. Boboxonov o'zbek pantomimasini tiklash bo'yicha birmuncha ishlar qildi: badiiy dastur tuzdi, "Qo'g'irchoqboz" degan film yaratdi. So'nggi yillarda pantomimaning mavqeyini tiklash bo'yicha qiziqchi Mirzabek Xolmedov faoliyati e'tiborlidir.

Endi bevosita huquqiy asosga e'tibor qaratamiz: **O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasiga[4]** asosan, pantomima mualliflik huquqi obyektini hisoblanadi. Pantomimaga nisbatan mualliflik huquqi uni yaratish fakti bilan yuzaga keladi. Bu o'z navbatida mualliflik prezumpsiyasi hisoblanadi. Ya'ni pantomima muallifi deb e'tirof e'tilish uchun asarni davlat ro'yxatidan o'tkazish shart emas. Pantomima muallifi ijodiy mehnati bilan, aniqroq aytadigan bo'lsak, o'z g'oyasi asosida yuz ifodasi va tana harakatlari bilan yangi, o'ziga xos obraz yaratgan jismoniy shaxsdir.

Endi pantomima ijrochisining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlariga to'xtalamiz: Shaxsiy nomulkiy huquq sifatida, avvalo, pantomima muallifi sifatida ko'rsatilish huquqiga egalikni e'tirof etishimiz mumkin. Bu huquq qonunchilikda mualliflik huquqi[5] deb belgilangan. Shuningdek, quyidagilar ham shaxsiy nomulkiy huquqlardir: muallifning haqiqiy ismi-sharifi, taxallusini ko'rsatgan holda yoxud ismi-sharifini ko'rsatmasdan, ya'ni imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqi (mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq); asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi (oshkor qilishga bo'lgan huquq), shu jumladan chaqirib olish huquqi; asarni, shu jumladan uning nomini muallif yoki hammualliflarning sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi (muallif obro'sini himoya qilish huquqi)ni o'z ichiga oladi.

**Muallifning mulkiy huquqlari esa quyidagilardan iborat:**

1. Asarni takrorlash.
2. Tarqatish.
3. Barchaning e'tiboriga yetkazish.
4. Prokatga berish.
5. Kabel orqali yuborish.
6. Import qilish .
7. Qayta ishlash.
8. Omma oldida namoyish etish.
9. Omma oldida ijro etish.
10. Efirga uzatish.
11. Tarjima qilish.
12. Barchaning e'tiboriga takroran yuborish.
13. Haq olish.

Yuqorida keltirilgan mulkiy huquqlar umumiy bo`lib, pantomima muallifi ulardan o`rni bilan foydalanadi.

**Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, pantomima** bu fikrni so`zsiz, mimika(yuz ifodasi) va tana harakatlari bilan ifodalab, yangi, o`ziga xos ijod qilish san`ati. U hamisha o`ziga xosligi bilan omma e'tiborida va e'tirofida. Ijodiy mehnati bilan pantomimani yuzaga keltirgan muallifning huquqlari qonun bilan muhofaza va himoya qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi  
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Charlie\\_Chaplin](https://uz.wikipedia.org/wiki/Charlie_Chaplin)
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pantomima>
4. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. Интеллектуал мулк. Дарслик.//Муаллифлар жамоаси.– Т.: ТДЮУ нашриёти, 2019.